

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KREATIV FAOLLIGINI OSHIRISH YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR

Andijon viloyati Izboskan tumani 11-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Arabova Matlubaxon Jumayevna

***Anatatsiya:** Ushbu uslubiy tavsiyada boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ faollogini oshirish, zamon talabiga mos bilim samaradorligini shakllantirish yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** kreativlik, qobiliyat, layoqat, tadqiqotchilik, tahlil, kreativ topshiriqlar, interfaol metodlar.*

Bugun dunyoda yuz berayotgan to‘rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli — harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to‘rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo‘lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o‘laroq yaratilgan. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha “create”dan olingan bo‘lib, yaratish ma’nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy

qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so‘zlarni yodlab, grammatika qoidalarini “suv qilib ichib yuborgan” bo‘lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Albert Eynshteyn “Tasavvur — bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Darsni interaktiv va qiziqarli tarzda o‘tkazish uchun 5 ta layfxak:

1. Samarali boshlash muvaffaqiyat kalitidir. Darsni har doim g‘ayrioddiy va qiziqarli tarzda boshlang. Aynan shu daqiqada siz nostandart usullardan "to‘liq" foydalanishingiz mumkin. Masalan, uy vazifasini zerikarli so‘rov o‘rniga, blits-turnir, mini-test o‘tkazing, musobaqa tashkil qiling. Agar mavzu yangi bo‘lsa, unda siz darsni ushbu mavzu bo‘yicha qiziqarli faktlar bilan boshlashingiz mumkin.

2. Darsni o‘quvchilaringizning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rejalashtiring. Har bir darsni rejalashtirish uchun turli xil variantlar foydalaning! Siz nafaqat sinfda faollarni, balki darsda tez-tez "esnaydigan", ortda qolayotgan o‘quvchilarni ham jalb qilishingiz kerak! Hamma uchun to‘g‘ri keladigan nimadir o‘ylab toping va texnikadan foydalaning!

3. O‘yin elementlarini qo‘shing. Har doim va har qanday sinfda ham o‘yin - ajoyib variantdir. Chunki o‘yinli darslar har qanday yoshdagi maktab o‘quvchilarini ham birdek jalb qila oladi. Shu sababli darsga to‘g‘ri keluvchi o‘yinlar o‘rganishga harakat qiling!

4. Stereotiplarni buzing! Darslarni odatiy doiraga o‘tkazmang: ma‘ruza, so‘rov va hokazo. Darsni boshqacha tuzishga harakat qiling. O‘quvchilarning darsga qiziqishi yo‘qligi ko‘pincha ular darsning barcha bosqichlarini oldindan bilishlari bilan bog‘liq. Shunday ekan, shakllarga amal qilmang.

5. O'quvchilarni yangi mavzuni tushuntirishga jalb qiling! O'zlari izlab ma'lumot topish, tayyor tushuntirishni tinglashdan ko'ra bilimni ko'proq mustahkamlaydi. O'quvchilar ishlasin! Buni amalga oshirish uchun keyingi mavzu bo'yicha ba'zi ma'lumotlarni topish vazifasini bering. Yoki dars davomida, o'quvchilarning o'zlarining hayotiy tajribasiga murojaat qiling.

O'quvchilarni kreativ faolligini oshirishda quyidagi o'yin usulidagi interfaol metodlardan foydalanishni tavsiya qilaman:

"Bo'g'in" o'yini. O'quvchilarning tezkor fikrlashlari, so'z boyligini aniqlash maqsadida bu o'yin o'tkaziladi. Bunda birinchi aytilgan so'zning oxirgi bo'g'imi keyingi so'zning birinchi bo'g'imiga to'g'ri kelishi kerak bo'ladi. Misol uchun, Maktab – tabrik, rassom – somsa va hokazo.

Maqol" o'yini. O'quvchilarni rag'batlantirish va maqollarni bilish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchi o'yin shartini aytmagan holda talabgor o'quvchilarni doskaga taklif etadi. O'quvchilar istaganicha doskaga chiqishi mumkin. O'qituvchi birinchi o'quvchiga bejirim karopka beradi, o'quvchi maqol aytib uni sherigiga uzatadi. Karopkani olgan o'quvchi maqol aytib yana keyingi sherigiga tutqazadi. Maqol aytolmagan yoki aytilgan maqolni takrorlagan o'quvchi o'rniga o'tiradi. O'yin bitta o'quvchi qolgunicha davom ettiriladi. Oxirgi qolgan o'quvchi g'olib bo'lish uchun maqol aytadi va karopkani ochib ichidagi o'qituvchi tayyorlagan sovg'aga ega chiqadi.

"Kim g'olib?" o'yini. 1-bosqich. Ushbu o'yin o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga undaydi. Asosiysi, o'quvchilar ham g'oliblik uchun, ham ko'proq bilim olish uchun kurashadilar.

2-bosqich. O'quvchilarni ikki guruhga bo'lasiz va nomlaysiz. Ularga o'tilgan mavzu yuzasidan ketma-ket ma'lumot aytishlarini aytasiz va tayyorgarlik ko'rishlari uchun ma'lum vaqt ajratasiz..

3-bosqich. Qaysi guruh a'zolari mavzu yuzasidan ko'proq va mazmunli ma'lumotlar aytgan bo'lsa g'olib deb e'lon qilasiz.

Maktabda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati juda katta. Maktablar yoshlarga o‘z iste’dodlarini, shu jumladan ijodiy qobiliyatlarini kashf etish, rivojlantirish va aniqlashda yordam berishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Maktablar bolalarni o‘zlari yashaydigan jamiyatning bir qismi ekanliklarini va uning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ijodiy imkoniyatlarga ega ekanliklarini his qilishlarida muhim ahamiyatga ega.

Aktiv dars muhitini hosil qilish uchun o‘qituvchilarga quyidagi 5 ta usulni amalda qo‘llashlarini tavsiya qilgan bo‘lar edim:

1. Darslaringizga "sir" qo'shing. O‘quvchilar ularni darsda nima kutayotganini bilishmasa, o‘rganish judayam qiziqarli bo‘ladi. Darslaringizni jumboqli va sirli savollar bilan boshlashga harakat qiling. Yoki yangi mavzuni boshlashdan avval bo‘lganingizda, o‘quvchilarga darslikda bo‘lmagan butkul yangi ma‘lumotni bering.

2. O'quvchi hayoti bilan bog'lang. O'quvchilaringiz o'rganayotgan narsalarga real aloqani yaratishga harakat qiling. Bu ularga mavzuni nega o'rganishi kerakligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Misol uchun, "Siz pul haqida o‘rganyapsiz, chunki hayotda siz qanday qilib oziq-ovqat sotib olib, to‘lovingizni to‘lashni bilishingiz kerak". Bunday aniqlik mavzuni muhimlik darajasini oshiradi va o‘quvchi yanada diqqatliroq bo'ladi.

3. Sinf o‘yinlarini yarating. O‘quvchilaringiz nechanchi sinf bo‘lishingizdan qat’i nazar, o‘yinlar darsni qiziqarli o‘tkazishning ajoyib usuli hisoblanadi. Shu sababli, darsingizda metodik o‘yinlardan ko‘proq foydalaning! Bu nafaqat dars samarasini oshiradi, shuningdek o‘quvchilar ushbu darsdan haqiqatdan zavqalanadilar!

4. Texnologiyalardan foydalaning. Texnologiyalar darslarni qiziqarli o‘tkazish uchun ajoyib usuldir. Bolalar elektronikani yaxshi ko‘radilar, shuning uchun uni umumiy ta’lim strategiyangizga ularni kiritishga harakat qiling. Doskaning oldida turish va ma’ruza qilishning o‘rniga, interfaol texnologiyalardan foydalaning.

5. "Kreativlik" bilan yondoshing. Darsingiz qanchalik qizg‘in ruhda o‘tishi va undan maksimal darajada samara olish avvalo sizga bog‘liq! Siz pedagog sifatida

kreativ bo‘lishingiz, har bir darsingizni qiziqarliroq va tushunarliroq o‘tishini ta’minlashingiz kerak va siz bunga majbursiz! Shunday ekan o‘zgarishni birinchilardan bo‘lib boshlang! Kreativ fikrlash o‘quvchilarning ta’lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo‘llab-quvvatlaydi. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko‘r-ko‘rona yodlash o‘rniga tadqiqot va ixtironi qo‘llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi bilan alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shartsharoitlarni bilishlari va o‘zlari ham o‘quvchilarga fikrlashda ko‘proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtaroq tasavvur, o‘z navbatida, o‘qituvchilarga ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ijodiy g‘oyalar bo‘lishi uchun muayyan vaqt talab etiladi. Kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholash isbotga tayangan dalillar asosida shakllantirilib, o‘quvchilar kompyuter platformasida qilayotgan, o‘qiyotgan va yaratayotgan narsalarni ko‘p jihatli malakalar bilan bog‘laydi.

Xulosali fikrga keladigan bo‘lsak, ijodiy sermahsullik bazaviy resurs yoxud sohaga bog‘liq qobiliyatlar, jumladan, bilim va texnik ko‘nikmalar bo‘lib, ularni yangicha usulda birlashtirish uchun kerak bo‘ladigan qobiliyatlar tayyor qo‘llanmalardan voz kecha olish kabi zarur motivatsiyani taqozo etadi. Bu to‘rt komponent ham turg‘un, ham takomillashtirish va muhitga moyil bo‘lgan komponentlardan iborat. O‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘rsatkichlari ularning tadqiqotchilik qobiliyatlariga qanday bog‘liq ekanligini tahlil etish ham o‘rinlidir. Xuddi o‘quvchi ishtiyoqini o‘lchaydigan uslub kabi, uning tadqiqotchilik qobiliyatini ham kompyuterlashgan testdagi xatti-harakatini kuzatishdan olingan (telemetriya) ma’lumotlar asosida tahlil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5
2. <https://t.me/Krepeduz>
3. Abdullayeva K. Milliy boshlang'ich maktab qanday bo'ladi? // Ma`rifat.2016. 4-soni
4. Пора добрых перемен // Учитель Узбекистана. 2019.04.
5. Nikolay Pirogov. Педагогический сочинению. М.1957.